

RUS TILI VA CHET TILLARNI O'RGANISHNING MUHIMLILIK DARAJASI.

Raximova Shirinoy Normurod qizi

Qiziltepa tuman 2-sون kasb-hunar maktabi Rus tili fani o'qituvchisi.

Xolmurova Nafosat Bozor qizi

Buxoro shahar kasb-hunar maktabi o'qituvchisi.

"O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi tog'risida"gi qarori, 2012-yil 10- dekabrdagi "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashrirish chora-tadbirlari tog'risida"gi 1875-sonli PQ qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriyhuquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalgalashirishda ushbu maqolada ko'zda tutilgan mavzuni yoritishda keng foydalananamiz. Yangi texnologik jarayon va o'qitishning yangi zamonaviy usullarini o'quv jarayoniga tatbiq qilishdagi yangicha zamonaviy yondashuv xorijiy til o'qitishning maqsadini o'quvchilarga bilim berish va ma'lum, nutqiy ko'nikmalarni shakllantirishdagina emas, balki shu bilan birga o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish, o'rganayotgan xorijiy tilga nisbatan qiziqishni kuchayirish ular xotirasining ichki imkoniyatlarini ishga solish, o'quvchilardagi o'z kuchiga bo'lgan ishonchini hosil qilishni ham o'z ichiga oladi."¹⁸

Til o'rganish kishilik jamiyatida bag'oyat muhim sohalardan biri hisoblanadi. Muloqot vositasi bo'lmish tilni tabiiy muhitda (oilada, jamoatchilik orasida) yoki uyushgan holda (darsda) amaliy egallash murnkin. Til hodisalariga oid bilimlar esa nazariy jihatdan o'rganiladi. Ma'lumki, chet tilni o'rgatish-o'rganish muayyan jihatlari bilan ona tili va ikkinchi tildan keskin farqlanadi. Bu esa, o'z navbatida, tegishli chet til o'qitish texnologiyasini qo'llashni taqozo etadi. Qo'lingizdag'i kitob mana shunday farqlar bilan birga ta'lif muassasalarida chet til o'qitish usullari, chet til darslarini tashkillashtirish, o'tkazish va h.k. ko'plab metodik masalalarni yoritib bergen. Kitob chet ellar va mamlakatimiz nashriyotlarida chop etilgan darslik va qo'llanmalar hamda o'zbek maktablari tajribasini yoritadigan metodik manbalarga asoslanib yozilgan.

"O'quvchilarning til tajribasi uch tildan yig'ilgani bilim, ko'nikma va malakalar (kompetensiya) majmuasi (sintezi) bo'lib, uning hajmi, qo'llanish ko'lami, o'zaro bog'liqligi masalalari metodikaning til tajribasini hisobga olish prinsipi doirasiga kiradi. Til tajribasini hisobga olish deganda, o'quvchi shu kungacha o'zbek, rus, chet til (ingliz, ispan, nemis yoki fransuz tili)dan olgan bilim, ko'nikma va malakasining hozir o'rganayotgan chet til materialini o'zlashtirishga salbiy (interferensiya) yoki ijobiy (transpozitsiya/fatsilitatsiya) ta'siri tushuniladi.

Rus tilini o'qitishda talabalarning ilmiy topshiriqlari shakllari xilma-xil bo'lishi mumkin: mini-insho, insho, seminar, ma'ruza, referat, jamoat oldida so'zlash, loyihani

¹⁸ Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. Xalq so'zi gazetasasi. 2017 yil 16 yanvar.

himoya qilish, krossvord, viktorina, stsenariy tuzish, shuningdek topshiriqlar va mashqlar to'plami va boshqalar.”¹⁹

“Tadqiqot faoliyatining shakllaridan biri bu **loyihalar texnologiyasi yoki loyihalar usuli**. Loyihalar usuli didaktik xususiyatiga ko'ra intellektual, nutqiy fikrlash va muloqot qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish muammolarini hal qilishga imkon beradi.

Ta'lim loyihasi - bu talabalarning tadqiqot faoliyati doirasidagi faoliyati natijasi va, albatta, rivojlanish, o'qitish va tarbiyalashning integral didaktik vositasi bo'lib, u sizga universal ko'nikma va ko'nikmalarni rivojlantirish va rivojlantirishga imkon beradi, ya'ni:

tadqiqot;

maqsadlarni belgilash va tadbirlarni rejalashtirish;

ma'lumotni izlash va tanlash va kerakli bilimlarni o'zlashtirish;

tadqiqot (tahlil, sintez, umumlashtirish);

ularning faoliyati natijalarining taqdimoti.

Ko'rib turganingizdek, maktab o'quvchilarining ilmiy-tadqiqot va loyihalashtirish ishlari zamonaviy pedagogik jarayon uchun dolzarb bo'lgan qator muammolarni, shu jumladan olingan bilim va ko'nikmalarni amalda qo'llash qobiliyatini hal qilishga imkon beradi.”²⁰

Rus tilini o'quvchilar qanday qilib yaxshi o'zlashtira olishlaigi kerak degan savolga, o'qituvchilar ko'pincha quyidagilarni maslahat berishadi: ko'plab rus tillarini tinglash, so'zlarni tez-tez qayta ko'rib chiqish, tilni o'rganish va grammatikaning ma'noga qanday ta'sir qilishini tushunish. O'qituvchi juda ko'p yordam berishi mumkin, ammo talabalar haqiqatan ham ilgarilab ketishlari uchun sinfda o'tkazadigan vaqt yetarli emas; ularga darsdan tashqari vaqtarda ham ko'plab mashqlar kerak. O'qituvchi uchun talabalar darsdan tashqari vaqtarda nima qilayotganini ko'rib chiqish va rus tilini takomillashtirish bo'yicha ko'rsatma berish juda muhimdir. Bu uy vazifasini belgilashdan tashqarida va talabalar har kuni rus tilida ko'nikmalarini rivojlantirish uchun foydalanishi mumkin bo'lgan vositalar va manbalarni o'z ichiga olishi kerak.

Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, xorijiy tillarni o'rganish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lmoqda. Ko'plab zamonaviy texnalogiyalardan, metodlardan yoki bo'lmasa xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimidagi yutuqlaridan foydalanishda ham til bilish keraklisi toboro sezilib bormoqda.

¹⁹ M. X. Toxtaxodjayev “Pedagogika” Toshkent – 2010

²⁰ Jalolov J. Chet tilini o'qitish metodikasi.- Toshkent. “O'qituvchi nashriyoti” 1996 y.